

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

YUNESKO MEROSINING ZARAFSHON VOHASI TURIZMIGA TA'SIRI: ZARAFSHON-QORAQUM KORIDORI MISOLIDA (2016-2025 YY)

Ismoilova Dilduzaxon Abdugaliyilovna

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, dotsent.

e-mail: dilduzaxon.ismoilova@ndktu.uz **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0000-5070-7846>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada 2016–2025-yillarda YUNESKO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Zarafshon–Qoraqum koridorining Zarafshon vohasi turizmiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda koridorning tarixiy-madaniy ahamiyati, transchegaraviy tuzilmasi va YUNESKO maqomi turizm rivojiga ijobiy turtki bergan bo'lsa-da, boshqaruvdagi sustlik, meros obyektlarining ta'mirga muhtojligi, xususiy sektorning passivligi va ekologik muammolar samaradorlikka to'sqinlik qilayotgani ko'rsatib berilgan. Xulosada meros salohiyatidan samarali foydalanish ichki boshqaruvni takomillashtirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga bog'liq ekanligi asoslanib, tegishli amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: YUNESKO, Zarafshon–Qoraqum koridori, Ipak yo'li, madaniy meros, turizm geografiyasi, transchegaraviy meros, O'zbekiston turizm siyosati, infratuzilma, ekoturizm, madaniy marshrutlar, meros boshqaruvi, davlat-xususiy sheriklik, barqaror turizm.

ВЛИЯНИЕ НАСЛЕДИЕ ЮНЕСКО НА ТУРИЗМ ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА: НА ПРИМЕРЕ ЗАРАФШАН-КАРАКУМСКОГО КОРИДОРА. (1916-2025 ГГ)

Исмоилова Дилфузахон Абдужалиловна

Навоийский государственный горный и технологический университет, доцент.

Аннотация.

В статье анализируется влияние Зарафшан-Каракумского коридора, включённого в Список всемирного наследия ЮНЕСКО, на развитие туризма в Зарафшанской долине в 2016–2025 годах. В исследовании показано, что историко-культурное значение коридора, его трансграничный характер и статус ЮНЕСКО оказали положительное влияние на развитие туризма. Вместе с тем недостаточная эффективность управления, необходимость реставрации объектов культурного наследия, низкая активность частного сектора и экологические проблемы препятствуют полноценному использованию его туристического потенциала. В заключении обосновывается, что эффективное использование потенциала культурного наследия зависит от совершенствования внутреннего управления и обеспечения устойчивого развития, а также предлагаются соответствующие практические рекомендации.

Ключевые слова: ЮНЕСКО, Зарафшан-Каракумский коридор, Шёлковый путь, культурное наследие, география туризма, трансграничное наследие, туристическая политика Узбекистана, инфраструктура, экотуризм, культурные маршруты, управление наследием, государственно-частное партнёрство, устойчивый туризм.

THE IMPAC OF UNESKO HERITAJE ON TOURIDM IN THE ZARAFSHAN OASIS: A CASE STUDY OF THE ZARAFSHAN-KARAKUM CORRIDOR (2016-2025)

Ismoilova Dilduzaxon Abdugaliyilovna

Navoi State University of Mining and Technologies, Associate Professor.

Abstract.

This article analyzes the impact of the Zarafshan–Karakum Corridor, inscribed on the UNESCO World Heritage List, on tourism development in the Zarafshan Valley during 2016–2025. The study demonstrates that the corridor's historical and cultural significance, transboundary character, and UNESCO status have positively contributed to tourism development. However, insufficient management effectiveness, the need for restoration of cultural heritage sites, limited private-sector involvement, and environmental challenges hinder the full realization of its tourism potential. The study concludes that the effective utilization of cultural heritage resources depends on improving internal management and ensuring sustainable development, and it provides relevant practical recommendations.

Keywords: UNESCO, Zarafshan–Karakum Corridor, Silk Road, cultural heritage, tourism geography, transboundary heritage, Uzbekistan's tourism policy, infrastructure,

ecotourism, cultural routes, heritage management, public-private partnership, sustainable tourism.

Kirish. 2023-yil 17-sentyabrda Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida bo'lib o'tgan YUNESKO Butunjahon merosi qo'mitasining 45-sessiyasida "Silk Roads: Zarafshon-Qoraqum Corridor" (Zarafshon-Qoraqum yo'nalishi) YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritildi [1]. Ushbu voqea Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston uchun tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalish qadimgi Buyuk Ipak yo'lining muhim qismi sifatida Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy-iqtisodiy aloqalarda markaziy o'rin tutgan. Zarafshon vohasi ushbu yo'lakning O'zbekistondagi asosiy qismi bo'lib, ming yillar davomida turli sivilizatsiyalar kesishgan hudud sifatida boy tarixiy-madaniy merosga ega.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda turizm sohasiga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Xususan, 2016–2025-yillarda sohani rivojlantirish bo'yicha bir qator strategik hujjatlar, qonunlar va dasturlar qabul qilindi [2]. Zarafshon-Qoraqum yo'nalishining YUNESKO ro'yxatiga kiritilishi esa voha turizmi rivojida yangi bosqichni boshlab berdi. Biroq ushbu xalqaro maqomning turizmga haqiqiy ta'siri, yaratilgan imkoniyatlar va mavjud muammolar ilmiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotda tarixiy, qiyosiy-tahliliy, statistik, geografik va tizimli yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning xronologik chegarasi 2016–2025-yillarni qamrab oladi. Mazkur davr O'zbekistonda turizm siyosatining yangi bosqichga ko'tarilishi hamda Zarafshon-Qoraqum koridorining YUNESKO maqomini olishi bilan bog'liq jarayonlarni izchil tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning manbaviy bazasini YUNESKO Butunjahon merosi markazi hujjatlari, ICOMOS ekspert xulosasi, O'zbekiston Respublikasining turizmga oid hujjatlari, Prezident qarorlari va yig'ilish materiallari, ilmiy maqolalar hamda Markaziy Osiyo arxeologik landshaftlariga oid tadqiqotlar tashkil etdi [1–12].

Tahlil jarayonida, avvalo, Zarafshon-Qoraqum koridorining tarkibi, siyosati va infratuzilmaviy o'zgarishlari koridorning YUNESKO maqomi bilan bog'liq jarayonlar nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilindi.

Bundan tashqari, koridor hududidagi muammolar boshqaruv, meros obyektlarini saqlash, xususiy sektor, ekologiya va infratuzilma kabi yo'nalishlar bo'yicha guruhlashtirildi.

NATIJALAR

"Silk Roads: Zarafshon-Qoraqum Corridor" (Zarafshon-Qoraqum yo'nalishi) Markaziy Osiyodagi Buyuk Ipak yo'lining saqlanib qolgan eng muhim qismlaridan biridir. Ushbu yo'lak sharqda Tojikistonning So'g'd viloyatidagi Hisorak manzilgohidan boshlanib, g'arbda Turkmanistonning Mari viloyatidagi Kushmeyxon manzilgohigacha davom etadi. Yo'nalishning umumiy uzunligi 866 kilometrni tashkil etadi. So'ngra qadimgi karvon yo'llari orqali Qoraqum cho'lini kesib, Mari vohasiga borib taqaladi [3].

Yo'nalish jami 31 ta komponent ob'ektdan iborat bo'lib, ular uchta davlat hududida joylashgan:

Davlat	Hudud (viloyatlar)	Ob'ektlar soni
O'zbekiston	Buxoro, Navoiy, Samarqand	15 ta
Tojikiston	So'g'd viloyati	7 ta
Turkmaniston	Lebap va Mari viloyati	9 ta

O'zbekiston ushbu transchegaraviy nominatsiyani tayyorlashda loyiha koordinatori sifatida ishtirok etgan. Markaziy Osiyo arxeologik landshaftlari (SAAL) loyihasi doirasida olib borilgan tayyorgarlik ishlarida IISAS (Markaziy Osiyo davlatlarining madaniy merosini o'rganish va saqlash instituti) nominatsiyaning kotibiyati vazifasini bajargan [4].

Tarixiy nuqtayi nazardan, Zarafshon-Qoraqum yo'nalishi miloddan avvalgi II asrdan milodiy XVI asrgacha bo'lgan davrda Ipak yo'lining markaziy qismi sifatida xizmat qilgan. Ushbu yo'lak orqali So'g'diylar, Parfiya, Sosoniylar, Temuriylar va Saljuqiylar kabi buyuk imperiyalar davrida Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo, diniy va madaniy almashuvlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, So'g'diylar — Zarafshon vodiysida 1 500 yildan ortiq yashagan va Ipak yo'li bo'ylab keng tarqalgan savdogarlar merosi ushbu hududning jahon madaniyatidagi ahamiyatini belgilovchi asosiy omildir [5]. YUNESKO tomonidan ushbu yo'nalish jahon merosi ro'yxatiga 10 ta mezondan II, III va V mezonlar bo'yicha kiritilgan [6]:

II mezon — insoniyat tarixidagi madaniy qadriyatlarining o'zaro ta'sirini ko'rsatadi;

III mezon — turli sivilizatsiyalarga oid saqlanib qolgan noyob guvohlikdir;

V mezon — inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatning klassik namunasidir.

Yo'nalish tarkibiga Samarqand, Buxoro, Mari kabi allaqachon YUNESKO ro'yxatiga kirgan shaharlar kirmaydi (ular alohida obyekt sifatida ro'yxatga olingan), balki ushbu yo'lak ularni bog'lovchi halqa vazifasini o'taydi [7]. Bu esa koridorning tuzilmaviy va funksiyaviy jihatdan alohida ilmiy-madaniy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

2016–2025-yillar davomida O'zbekistonda turizm sohasi strategik ahamiyatga ega tarmoqqa aylantirila boshlandi. Bu borada 2016-yil 2-dekabrda PQ-4861-son "Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror turizmni milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berdi [8]. Shuningdek, 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida"gi yangi Qonun bilan 1999-yilgi qonun o'rniga zamonaviy talablarga javob beruvchi huquqiy baza yaratildi [9]. Ushbu qonunda turizm faoliyatini litsenziyalash bekor qilinib, sohada ma'muriy to'siqlar kamaytirildi.

Biroq Zarafshon vohasi misolida bu siyosatning amaliy natijalari bir tekisda emas edi. Samarqand va Buxoro kabi yirik turistik markazlarda infratuzilma jadal rivojlantirilgan bo'lsa, vohaning boshqa hududlarida (Navoiy viloyati, Zarafshon daryosining o'rta va quyi oqimlari) turizm salohiyatidan yetarlicha foydalanilmay qoldi [10].

2020–2021-yillardagi pandemiya turizm sohasiga dunyo bo'ylab salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonda ham xorijiy turistlar oqimi keskin kamaydi, biroq mahalliy turizmni rag'batlantirish siyosati (ichki turizm bo'yicha subsidiyalar, dam olish kunlaridagi imtiyozlar) vohadagi ba'zi tabiiy marshrutlarga bo'lgan qiziqishni biroz bo'lsa-da oshirdi.

Shu davrda Zarafshon–Qoraqum koridorini YUNESKO ro'yxatiga tayyorlash bo'yicha ilmiy-amaliy ishlar boshlandi. 2021–2022-yillarda Markaziy Osiyo arxeologik landshaftlari loyihasi doirasida yo'nalishdagi 31 ta obyektning holati batafsil o'rganildi, ularning chegaralari aniqlandi va huquqiy muhofaza maqomlari takomillashtirildi [11]. Lekin bu ishlar asosan ilmiy-tadqiqot va hujjatlashtirish darajasida qoldi, turizm infratuzilmasi va xalqaro marketing borasida sezilarli o'zgarishlar bo'lmadi.

2023-yil 17-sentyabrda Ar-Riyodda bo'lib o'tgan YUNESKO Butunjahon merosi qo'mitasining 45-sessiyasida Zarafshon–Qoraqum yo'nalishi Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritildi [12]. Ushbu voqea O'zbekiston uchun mustaqillik davridagi eng yirik madaniy-diplomatik yutuqlardan biriga aylandi.

YUNESKO maqomining qabul qilinishi bilan turizm siyosatidagi o'zgarishlarni ikki yo'nalishga ajratish mumkin.

Birinchidan, siyosiy-huquqiy sohada 2024-yildan boshlab “Zarafshon–Qoraqum” yo'nalishini boshqarish bo'yicha Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston o'rtasida yagona xalqaro muvofiqlashtirish mexanizmlari ishga tushirildi [13]. O'zbekiston hukumati tomonidan yo'nalishga kiruvchi 15 ta obyektni konservatsiyalash va ta'mirlash bo'yicha ishlar jadallashtirildi.

Ikkinchidan, amaliy-infratuzilmaviy sohada 2025-yil 10-aprelda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan yig'ilishda Zarafshon–Qoraqum koridori salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha keskin choralar belgilandi [14]. Yig'ilishda quyidagi vazifalar qo'yildi:

Avvalo, Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlarini qamrab olgan yangi “Zarafshon–Qoraqum” turistik aylanasi ishga tushirish; “Yagona turistik karta”ni joriy etish — bu barcha tarixiy yodgorliklarga bir chipta orqali kirish imkonini beradi; 2025-yil yakunigacha 15 million xorijiy turistni jalb qilish, turizm eksportini 54 mlrdga yetkazish; shu yilning o'zida 635 ta mehmonxona ochish va 50 000 ta yangi ish o'rni yaratish.

Mazkur ishlar doirasida Buxoro viloyatida “Buxoro Palas”, “Varaxsha”, “Zarafshon” kabi mehmonxonalar rekonstruksiya qilindi. 32 ta yangi mehmonxona, 9 ta motel va 50 ta mehmon uyi ishga tushirildi. Shuningdek, Zarafshon milliy tabiat bog'i va Amirsoy kabi ekoturizm obyektlari, vohadagi tarixiy shaharlar (Vardanze, Varaxsha, Poykent) xalqaro turistik marshrutlarga faol jalb etila boshlandi [15].

YUNESKO maqomining yana bir muhim samarasi — xalqaro ilmiy-madaniy e'tiborning kuchayishidir. 2024–2025-yillarda Zarafshon vohasida bir qator xalqaro konferensiyalar, ekspeditsiyalar va mediaturlar tashkil etildi. Bu esa voha imijining jahon miqyosida tanilishiga xizmat qildi.

MUHOKAMA

YUNESKO maqomining ijobiy ta'siriga qaramay, Zarafshon vohasi turizmida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Ularning asoslari Prezidentning 2025-yil 10-apreldagi yig'ilishida oshkora tanqid qilingan [16]. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolarni beshta asosiy guruhga ajratish mumkin.

1. **Boshqaruvdagi sustlik va ijro intizomining pastligi.** Yig'ilishda ta'kidlanganidek, Zarafshon–Qoraqum koridorining YUNESKO ro'yxatiga kiritilishiga bir yildan ko'proq vaqt o'tsa ham, mutasaddilar va hokimlar tomonidan uning turizm salohiyatidan foydalanish bo'yicha birorta ham amaliy taklif ishlab chiqilmagan. Bu holat markazdan tumanlarga boshqaruv tizimidagi passivlik va mas'uliyatsizlikni namoyon etadi.

2. **Meros obyektlarining ta'miri va holati bilan bog'liq muammolar.** So'nggi to'rt yilda madaniy meros obyektlarini ta'mirlash uchun davlat budjetidan 385 mlrd so'm mablag' ajratilgan bo'lsa-da, hali ham 485 ta obyekt shoshilinch ta'mirga muhtojligi qayd etilgan. Bu mablag'lardan samarali foydalanilmaganligidan yoki obyektlar sonining ko'pligi sababli ajratmalar yetarli bo'lmaganidan darak beradi.

3. **Xususiy sektorni jalb qilishdagi past ko'rsatkich.** Ijaraga berilishi mumkin bo'lgan 2 000 dan ortiq meros obyektlaridan atigi 325 tasi (15,7 foiz) tadbirkorlarga topshirilgan. Bu esa xususiy investitsiyalarning yetarlicha jalb qilinmaganligi, meros obyektlaridan tijorat maqsadida foydalanish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayotganligini ko'rsatadi.

4. **Ekologik va ijtimoiy xavflar.** Zarafshon daryosining ifloslanishi va suv resurslarining kamayishi ekoturizm salohiyatiga jiddiy xavf solmoqda [17]. Shuningdek, turistlar oqimining keskin oshishi tabiiy-madaniy landshaftlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi (masalan, chiqindilar, infratuzilmaning eskiligi) mumkin. Buning oldini olish bo'yicha yetarli darajada profilaktik choralar qabul qilinmagan.

5. **Infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi.** Zarafshon vohasining ko'plab obyektlariga borish yo'llari eskirgan, aloqa va internet qamrovi sust, turistik servis va xizmat ko'rsatish sifati xalqaro standartlarga to'liq mos kelmaydi. Ayniqsa, Navoiy viloyati va Buxoro viloyatining chekka tumanlarida bu muammolar keskinlashib bormoqda [18].

Zarafshon vohasida YUNESKO merosining (Zarafshon–Qoraqum koridori misolida) turizmga ta'siri bo'yicha quyidagi asosiy ilmiy-amaliy natijalar aniqlandi.

1. **YUNESKO maqomi turizm siyosatida strategik burilish yaratdi.** 2016–2022-yillarda turizmga oid qonunlar va dasturlar qabul qilingan bo'lsa-da, ular asosan umumiy xususiyatga ega edi. Ya'ni Buxoro viloyatida 32 ta mehmonxona, 9 ta motel va 50 ta mehmon uyi ishga tushirildi; Zarafshon milliy tabiat bog'ida 1 km, 3 km va 5 km lik yangi ekomarshrutlar tashkil etildi. Tarixiy-madaniy meros obyektlarini ta'mirlashga 2021–2025-yillar oralig'ida 385 mlrd so'm mablag' ajratildi.

YUNESKO ro'yxatiga kiritilgach, Yevropa va Osiyoning nufuzli turistik agentliklari tomonidan Zarafshon vohasi

“2024–2025-yillar uchun top-10 tavsiya etilgan madaniy marshrutlar” ro'yxatiga kiritildi. O'zbekistonga keluvchi xorijiy turistlar umumiy sonidan Zarafshon vohasiga tashrif buyuruvchilar salmog'i 2023–2025-yillar oralig'ida taxminan 17–20 foizga ortgan (rasmiy statistikaning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra).

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, YUNESKO maqomining ijobiy ta'siri Samarqand va Buxoro kabi yirik markazlarda tez-tez seziladi. Navoiy viloyati va Zarafshon daryosining o'rta va quyi oqimi hududlarida (jumladan, Vardanze, Poykent, Varaxsha arxeologik obyektlari atrofida) infratuzilma va xizmat ko'rsatish darajasi esa hali ham zaifligicha qolmoqda [19]. Bu eng muhim salbiy natijadir.

Rasmiy hujjatlar va Prezident topshiriqlarida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha katta maqsadlar belgilangan. Biroq 2025-yilgi hisobotga ko'ra, 2 000 dan ortiq ijaraga berilishi mumkin bo'lgan meros obyektlarining atigi 15,7 foizi (325 tasi) tadbirkorlarga topshirilgan. Bundan tashqari, 485 ta obyekt shoshilinch ta'mirga muhtojligicha qolmoqda. Bu holat YUNESKO maqomining amaliy ijtimoiy-iqtisodiy samara berishi uchun boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zarafshon–Qoraqum koridorining YUNESKO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi Zarafshon vohasi turizmi tarixidagi eng muhim voqealardan biri bo'ldi. 2016–2025-yillar davrini qamrab olgan ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, YUNESKO maqomi turizm sohasidagi davlat siyosatiga yangi sur'at berdi, xalqaro e'tiborni kuchaytirdi va infratuzilmani rivojlantirish uchun iqtisodiy resurslarni safarbar qildi. Biroq maqomning o'zi yetarli emas — undan samarali foydalanish boshqaruv tizimi, ijro intizomi va xususiy-davlat sherikligiga bog'liq.

Asosiy xulosa shuki, YUNESKO merosi Zarafshon vohasi turizmi uchun katalizator vazifasini o'taydi, lekin uning ta'siri ekzogen (tashqi) omil bo'lib, endogen (ichki) omillar — ya'ni samarali boshqaruv, malakali kadrlar, infratuzilma va ekologik barqarorlik — asosiy hal qiluvchi omillar bo'lib qoladi. Mavjud muammolar (obyektlarning ta'mirsizligi, xususiy sektorning sustligi, mansabdorlar passivligi) ushbu xulosani yanada mustahkamlaydi.

Yuqoridagi tahlil va xulosalardan kelib chiqib, Zarafshon vohasida turizmni yanada rivojlantirish va YUNESKO merosidan samarali foydalanish bo'yicha quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

1. **Yagona boshqaruv strategiyasini joriy etish.** Zarafshon–Qoraqum koridorining 15 ta o'zbek obyekti uchun alohida yagona koordinatsiya markazi tashkil etilsin. Ushbu markaz YUNESKO talablari, turizm marketingi va obyektlarni saqlash bo'yicha yagona yo'l xaritasini ishlab chiqsin. Hozirgi vaziyatda turli vazirliklar (Madaniyat, Turizm, Iqtisodiyot) o'rtasidagi tarqoqlik samaradorlikni pasaytirmoqda.

2. **Xususiy sektorni faol jalb qilish uchun iqtisodiy rag'batlantirish.** Ijaraga berilmagan 1 675 ga yaqin meros obyekti uchun alohida investitsiya dasturi ishlab chiqilsin. Biznes subyektlariga ushbu obyektlarni restavratsiya qilish va turistik xizmat ko'rsatish uchun soliq imtiyozlari (masalan, 5 yilga yer solig'i va mol-mulk solig'idan ozod qilish) hamda subsidiyalar taklif etilsin.

3. **“Yagona turistik karta”ni tezkorlik bilan joriy etish va raqamlashtirish.** Prezident tomonidan taklif etilgan “Yagona turistik karta”ni ishga tushirish zarur. Kartaga 15 ta obyektдан tashqari yo'l bo'yidagi xizmat ko'rsatish shoxobchalari, tarixiy muzeylar va milliy oshxonalar kiritilishi lozim. Raqamlashtirish (mobil ilova, onlayn chipta, audiogid) daromadlar shaffofligini ta'minlaydi.

4. **485 ta ta'mirga muhtoj obyektni restavratsiya qilish rejasini tuzish.** Meros obyektlari holati bo'yicha “qizil”, “sariq”, “yashil” toifalarga ajratilsin. 2026–2028-yillar uchun eng xavf ostidagi 200 ta obyektni birinchi galda ta'mirlash bo'yicha dastur qabul qilinsin. Xususiy sheriklik asosida qolgan obyektlarni bosqichma-bosqich ta'mirlash yo'nalishi belgilansin.

5. **Transchegaraviy turizmni rivojlantirish.** Zarafshon vohasi turizmi Tojikiston (Panjikent) va Turkmaniston (Mari) bilan transchegaraviy marshrutlar orqali yanada boyiydi. Shu sababli O'zbekiston tomonidan 2027-yilgacha ushbu ikki davlat bilan “Bir marshrut — bir viza” tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha diplomatik muzokaralarni boshlash lozim.

6. **Ekologik va barqaror rivojlanish prinsiplarini qo'llash.** Zarafshon daryosining ekologik holatini yaxshilash uchun “Yashil turizm” standartlari joriy qilinsin. Turistik marshrutlardagi plastik chiqindilarni kamaytirish, mahalliy aholini ekologik madaniyatga o'rgatish va har bir turistdan yig'iladigan ekoto'lov (masalan, 1 AQSh dollari) tizimi yo'lga qo'yilsin. Bu mablag'lar obyektlarni muhofaza qilish fondiga yo'naltirilsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO World Heritage Committee. *Decision 45 COM 8B.13 – Silk Roads: Zarafshan-Karakum Corridor (Tajikistan, Turkmenistan, Uzbekistan)*. – 2023. – URL: <https://whc.unesco.org/en/decisions/8394/>
2. ICOMOS. *Evaluations of Nominations of Cultural and Mixed Properties to the World Heritage List: Silk Roads: Zarafshan-Karakum Corridor*. – Paris: ICOMOS, 2023. – In: WHC/23/45.COM/INF.8B1. – URL: <https://whc.unesco.org/archive/2023/whc23-45com-inf8B1-en.pdf>
3. Tajikistan, Turkmenistan, Uzbekistan. *Summary of the State of Conservation Report by the States Parties: Silk Roads: Zarafshan-Karakum Corridor*. – 30 November 2024. – UNESCO World Heritage Centre. – URL: <https://whc.unesco.org/en/documents/219935>
4. International Institute for Central Asian Studies (IICAS); University College London (UCL). *Central Asian Archaeological Landscapes (CAAL): Project on the Creation of an Online Database of Archaeological Sites of Central Asia*. – Project duration: 2019–2023. – URL: <https://iicas.int/projects/index?page=6>
Qo'shimcha rasmiiy loyiha sahifasi: <https://www.ucl.ac.uk/social-historical->

[sciences/archaeology/research/research-directory/computational-and-digital-frontiers/caal](https://www.researchgate.net/publication/376687945_O'RTA_ZARAFSHON_HAVZASINI_REKREATSIYA_TURISTIK_RESURLARI_ULARDAN_FOYDALANISHNING_GEOGRAFIK_ASOSLARI_VA_ISTIQBOLLARI)

5. Abbasov S. B., Yarashev Q. S., Badalov O'. B. *O'rta Zarafshon havzasini rekreatsiya-turistik resurslari, ulardan foydalanishning geografik asoslari va istiqbollari: monografiya.* – Samarqand: SamDCHTI nashriyoti, 2023. – 132 b. – URL:

[https://www.researchgate.net/publication/376687945_O'RTA_ZARAFSHON_HAVZASINI_REKREATSIYA - TURISTIK_RESURLARI_ULARDAN_FOYDALANISHNING_GEOGRAFIK_ASOSLARI_VA_ISTIQBOLLARI](https://www.researchgate.net/publication/376687945_O'RTA_ZARAFSHON_HAVZASINI_REKREATSIYA_TURISTIK_RESURLARI_ULARDAN_FOYDALANISHNING_GEOGRAFIK_ASOSLARI_VA_ISTIQBOLLARI)

6. Doniyorov A. X. O'zbekistonda turizmning huquqiy-ilmiy asoslarining shakllanish tarixi // *International Scientific and Practical Conference "The Silk Road: Cooperation through the Prism of Tourism"*. – 2024. – B. 401–405. – DOI: 10.5281/zenodo.13896694. – URL: <https://aps.tsuos.uz/en/teacher/198/articles?page=4>

7. Rasulov A., Madjitova J., Islomova D. Principles of Tourism Development in Downstream Zarafshan District // *American Journal of Social Sciences and Humanity Research*. – 2022. – Vol. 2, No. 5. – P. 11–16. – DOI: 10.37547/ajsshr/Volume02Issue05-03. – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/ajsshr/article/view/38625>

8. Srojeva G. V. Quyi Zarafshon vohasi turizm imkoniyatlari // *Modern Science and Research*. – 2023. – Vol. 2, Issue 11. – B. 199–204. – DOI: 10.5281/zenodo.10084703. – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25067>

9. Nazarov X. T., Tirkashev S., Tirkashev T., Mannanova N. Zarafshon daryosi suvining ifloslanishi va ularning oldini olish yo'llari // *Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. Aniq va tabiiy fanlar seriyasi.* – 2018. – № 5 (111). – B. 178–180. – URL: https://www.samdu.uz/cy/pages/No_111

10. O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. – 2016-yil 2-dekabr. – PF-4861-son. – URL: <https://lex.uz/docs/3077025>

11. Zarafshon-Qoraqum koridori salohiyatidan foydalanish bo'yicha yig'ilish // *Kun.uz.* – 2023. – 18-sentabr. <https://kun.uz/news/2023/09/18/buyuk-ipak-yolining-zarafshon-qoraqum-yolagi-yunesko-umumjahon-merosi-royxatiga-kiritildi>